



SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI HOKIMINING QARORI

Paxtachi tumani hokimligi

2025-yil 4-mart

60-7-102-Q/25

XDFU

Tuman hokimligining 2025-yil 1-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan hujjatlar ijrosini samarali tashkil etish, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Samarqand viloyati hokimining “Viloyat hokimligining 2025-yil 1-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 8-fevraldagagi 39-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tumandagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari 2025-yil 1-yarim yillikda quyidagi ustuvor vazifalarga asosiy e’tiborini qaratsinlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2024-yil 21-fevraldagagi PF-37-sonli Farmoni;

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da tasdiqlangan hududiy rivojlantirish dasturlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirdorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 29-noyabrdagi PQ-407-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 13-martdagি PF-49-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Vazirlar Mahkamasi komplekslari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan 2024-yil yakunlari hamda 2025-yil bajariladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlarida berilgan topshiriqlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika hududlaridagi uchrashuvlar hamda yig‘ilishlaridagi ma’ruzalari;

ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 10-fevraldagи PF-6166-sonli Farmoni;

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 31-maydagи PQ-5132-sonli qarori.

3. Tuman hokimligining 2025-yil 1-yarim yillik ish rejası 1-12-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Arnaqulov, S.Qilichev, A.Quldashev, M.Abdinabiyyev, G‘.Absanov, I.Juraqulova), maslahatchilar, yordamchisi, guruh va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari:

2025-yil 1-yarim yillik ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini, ish rejani bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borilishini va qat‘iy nazorat o‘rnatalishini ta’minlasin;

har oylik shaxsiy ish rejasini tasdiqlash va uning bajarilishini tahlil qilib borilishini davom ettirsin;

doimiy va tizimli asosda – hokimlik apparatida va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomi holatini (ishlab chiqilgan jadvallarga muvofiq) tanqidiy o‘rganib muhokama etsin;

2025-yil 1-yarim yilligida Vazirlar Mahkamasi Rayosatining hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan majlislariga puxta tayyorgarlik ko‘rilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisı tuman hokimligining 2025-yil 1-yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning bajarilishini doimiy ravishda nazorat qilib borsin va har oy yakuni bilan bajarilishi yuzasidan tuman hokimiga axborot kiritib borsin.

6. Belgilansinki, 2025-yil 10-iyulga qadar tuman hokimining o‘rinbosarlari Tashkiliy-kadrlar guruhiga hamda korxona va tashkilotlar tegishliligi bo‘yicha tuman hokimligi bosh mutaxassislariga 2025-yil 1-yarim yillik ish rejasining bajarilishi yuzasidan har oy yakuni bilan tahlilini va 2025-yil 2-yarim yillik ish rejasi loyihasini taqdim etsin.

7. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zinmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



K.Xushbakov

Paxtachi tuman hokimining
2025-yil 4-martdagি
60-7-102-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalari bo‘yicha birinchi
o‘ribbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining 2025-yil I yarim yillik**

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar
2025-2030-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi hamda viloyat hokimligining qaror, yig‘ilish bayoni va farmoyishlaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1	2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (U.Arnaqulov), barcha tashkilot va korxona rahbarlari
2	O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq murojaatlar ijrosini bajarish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (U.Arnaqulov), tuman hokimligi bosh mutaxassis (X.Omonov)
3	“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan ishslash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirilishini ta’minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (U.Arnaqulov), tuman hokimining tegishli o‘ribbosarlari, tumandagi tegishli tashkilotlar rahbarlari

4	Tumanning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, pudrat ishlari hajmi, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish hajmlarini 2025-yil I yarim yillik prognozlarini oylik va choraklik tahlil qilish hamda bajarilishini ta’minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov), tuman statistika bo‘limi (S.Turabov), barcha tashkilot va korxona rahbarlari
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagи “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4702-sonli qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha belgilangan chora- tadbirlarni amalga oshirish va ijrosini ta’minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, barcha tashkilot va korxona rahbarlari
6	Tuman mahalliy byudjet tushumlari prognoz ko‘rsatkichlari 2025-yil I yarim yillik rejalarini bajarish, qo‘srimcha manbalar aniqlanish va davlat byudjeti undirilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov), barcha tashkilot va korxona rahbarlari
7	Tumandagi jismoniy hamda yuridek shaxslarning mol-mulk va yer solig‘idan mavjud soliq qarzdorligini 50 foizini undirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov), barcha tashkilot va korxona rahbarlari
8	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 104-sonli qarori ijrosi yuzasidan xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlар natijadorligi 115 foizga oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boyqabilov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov)

9	Tumanda bandlik dasturi orqali investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga, qurilish va kommunal sohasi hisobiga hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishida jami 16,1 ming fuqarolarini doimiy va mavsumiy ishlarga band qilishni ta'minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining barcha o'rribbosarlari, tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (B.Azizov) barcha tashkilot va korxona rahbarlari
10	Tumanda jami xizmatlar hajmini 2025-yilning I choragida o'sish suratini 116 foizga yetkazish va kuzatuvga tushgan 36 ta xizmat ko'rsatish korxonalarini prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash.	2025-yil I chorak	Tuman hokimining barcha o'rribbosarlari, tuman SI boshlig'i (A.G'iyasov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Boyqabilov), tuman statistika bo'limi (S.Turabov)
11	2025-yilda tumanda xizmat va servis sohasini rivojlantirish orqali fuqarolar bandligi ta'minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (U.Arnaulov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Boyqabilov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (B.Azizov)
12	Tumandagi Istiqlol ko'chasida xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etib, markaziy ko'chaga aylantirish, M-37 yo'lida xizmat ko'rsatish loyihalari amalga oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (U.Arnaulov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Boyqabilov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari (faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-son qarorda belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (U.Arnaulov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (B.Azizov), barcha tashkilot va korxona rahbarlari

14	Tumanida 2025-yil I yarim yilgida yangidan tashkil etiladigan kichik biznes subyektlarini tashkil qilish va ulushini oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
15	Tumanda 2025-yil I yarim yilgida yangidan tashkil etiladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish va ulushini oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman DSI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
16	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-sonli qaror ijrosi yuzasidan tumanda 2025-yil I yarim yilgida 6767 nafar fuqarolarni o‘zini-o‘zi band qilishini ta’minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman DSI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
17	Tumanda 2025-yil I yarim yilligida 1062 ta yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish choralarini ko‘rish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman DSI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
18	Tumanda 2025-yil I yarim yilligida 165 ta hunarmandlar hamda 200 ta ustoz-shogirdlarni yangidan tashkil qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman Hunarmandlar uyushmasi rahbari (I.Mardonov), mahallalardagi hokim yordamchilari

19	2025-yilda 2360 ta mikroloyihalar va uy tadbirkorligini tashkil qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
20	Tumanda vaqtincha mehnat faoliyatini amalgalashirish uchun xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarni kasbga va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha 2025-yil I yarim yilligida fuqarolarni o‘qitish va ishga joylashtirish hamda imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), tuman Mikrokredit bank rahbari (M.Jonuzoqov)
21	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustda 485-sonli qaroriga asosan tumanda ko‘chma savdo joyini (K-SAVDO) orqali elektron auksionda sotish natijasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribosari (U.Arnaqulov), tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
22	Tumada aholini tadbirkorlikka jalb qilishni rivojlantirish maqsadida mahallalarda 20 turdag‘i zaruriy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarni tashkil etish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari
23	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10- sentabrdagi PQ-373-sonli qaror ijrosi yuzasidan tumandagi ishsiz fuqarolarga 2025-yil I yarim yilligida auksion orqali yer maydonlari ajratish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov), mahallalardagi hokim yordamchilari

24	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevralda 71-sonli qaroriga asosan tumandagi tadbirkorlarga lotlarni auksion orqali yer maydonlari ajratish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (U.Arnaqulov), tuman Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (A.Bayitov), tuman uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish bo‘limi (X.Sanaqulov)
25	Tumandagi bozorlar savdo komplekslarida oziq-ovqat xafsizligi, narx-navo barqarorligi hamda arzonlashtirilgan yarmarkalarni nazorat qilish hamda tashkil etish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (U.Arnaqulov), tuman SI boshlig‘i (A.G‘iyasov), “Paxtachi dehqon bozori” MChJ (N.Axmedov), “Sanobar savdo kompleksi” MChJ (S.Turayeva), “Chorshanba dehqon bozori” MChJ (M.Eshquvvatova), ishchi guruh a’zolari
26	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi PQ-55-sonli qaror ijrosi yuzasidan tumanda tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan fuqarolarga imtiyozli kredit mablag‘larini ajratish va ajratilgan kreditlarni undirishda muammoli kreditga aylangan kreditlarni sundirish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), mahallalardagi hokim yordamchilari, tijorat bank rahbarlari (F.Tolibov, M.Jonuzoqov, A.Eshpulatov)
27	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi PQ-306-sonli qaror ijrosi yuzasidan tumanda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagida bo‘lgan yuridik shaxslarga imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), tijorat bank (F.Tolibov, M.Jonuzoqov, A.Eshpulatov), tuman savdosanoat palatasi (F.Kenjayev)
28	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli qaror ijrosi yuzasidan “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga asosan tumandan ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar hamda 50 nafar va undan yuqori yangi ish	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (U.Arnaqulov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Azizov), tijorat bank (F.Tolibov, M.Jonuzoqov, A.Eshpulatov), tuman savdo-

	o‘rinlari yaratish istagida bo‘lgan tadbirkorlar bilan samarali ishlar tashkil qilish.		sanoat palatasi (F.Kenjayev)
29	“Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili doirasida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida HARAKATLAR REJASiga muvofiq tumandagi mavjud tadbirkorlar bilan ishslash.	2025-yil I yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov), tuman SI (A.G‘iyasov), mahallalardagi hokim yordamchilari

Paxtachi tuman hokimining
2025-yil 4-martdagি
60-7-102-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar,
kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha
o'rningbosarining 2025-yil I yarim yillik
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
2025-2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi hamda viloyat hokimligining qaror, yig'ilish bayoni va farmoyishlaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1	2025-yil Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash	Doimiy	S.Qilichev, barcha tashkilot va korxona rahbarlari
2	O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq murojaatlар ijrosini bajarish	Doimiy	S.Qilichev, M.Ravshanov, N.Xolmuminov

3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2023-yildagi 118-sonli Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherlikchilik asosida modernizasiya qilish to'g'risidagi qaroriga asosan ijtimoiy soha obyektlarini o'rghanish	Doimiy	S.Qilichev, barcha tashkilot va korxona rahbarlari
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2024- yildagi PQ-454-sonli 2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorga asosan ijtimoiy soha obyektlari hamda boshqa obyektlardagi qurilish, ta'mirlash ishlarini doimiy nazorat qilish	Yil davomida	S.Qilichev, H.Sanaqulov, tegishli tashkilotlar va mahalla raislari
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2024- yildagi PQ-407-sonli Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorga asosan ijtimoiy soha obyektlari hamda boshqa obyektlardagi qurilish, ta'mirlash ishlarini doimiy nazorat qilish	Yil davomida	S.Qilichev, H.Sanaqulov, tegishli tashkilotlar va mahalla raislari
6	2025-yil "Obod xonodon, obod ko'cha, obod mahalla" mezonlari asosida olib borilayotgan ishlar yuzasidan belgilangan mahallalarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tuzish, bajarish mexanizmlarini belgilash	Yil davomida	S.Qilichev, M.Ravshanov, H.Sanaqulov, tegishli tashkilotlar va mahalla raislari
7	Joriy yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilishi rejalashtirilgan barcha qurilish obyektlari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish joylarini belgilash	Mart oyida	S.Qilichev, N.Xolmuminov, H.Sanaqulov

8	<p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 12-fevraldagagi 41-sonli “Aholi punktlarini kompleks qurishda shaharsozlik normalari va qoidalarini qat’iy bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirishga doir qo‘s Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagagi “Aholi punktlarini qurishda shaharsozlik va yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minalashga, shuningdek tadbirkorlik maqsadlari uchun yer ajratish tartibini yanada takomillashtirishga doir qo‘s Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 467-sonli qarorlari ijrosi bo‘yicha tuman hokimligi qoshidagi ishchi guruh tomonidan ko‘p qavatli uylar atrofida, tuman markazlari va qishloq aholi punktlarda, xalqaro ahamiyatga ega magistral yo‘l yoqasida aniqlangan noqonuniy qurilishlarni ishchi komissiyalarda ko‘rib chiqib, belgilangan tartibda chora ko‘rish</p>	<p>Har oyda bir marta yig‘ilish tayyorlash hamda joylarda sayyor yig‘ilishlar o‘tkazib muhokoma kilib borish</p>	<p>S.Qilichev, N.Xolmuminov, H.Sanaqulov</p>
9	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi 199-sonli Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoniga asosan ishlarni tashkil qilish</p>	<p>Yil davomida</p>	<p>S.Qilichev N.Xolmuminov X.Maxsiddinov</p>
10	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 299-sonli Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027 yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori ijrosi bo‘yicha joylarda o‘rganish olib borish.</p>	<p>Yil davomida, har oyda</p>	<p>S.Qilichev N.Xolmuminov H.Sanaqulov , tegishli tashkilotlar</p>

11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-46- son farmoni ijrosini ta'minlash	Yil davomida	S.Qilichev N.Xolmuminov X.Maxsiddinov
12	Tumanda 2024-yil rejalashtirilgan xo'jaliklararo ichki yo'llarni hamda shahar tipidagi pasyolkalar maqomini olgan aholi punktlari ichki yo'llarini ta'mirlash ishlarini sifatli va o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish	Yil davomida, har oyda bir marotaba muhokamali yig'ilish tayyorlash	S.Qilichev, M.Ravshanov, N.Eshonqulov
13	Tumanda 2024-yil dasturga kiritilgan xalqaro, davlat hamda mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini to'la va o'rta ta'mirlash ishlarini borishini nazoratga olish va belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishini ta'minlash	Har chorak yakuni bilan	S.Qilichev, M.Ravshanov, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda
14	Aholining, ayniqsa qishloq aholisining turmush darajasi va sifatini izchil oshirishni ta'minlash, qishloqlarni tubdan obodonlashtirish, yakka tartibda uy-joylar qurish dasturini amalgaga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi yuzasidan shaxsiy mas'uliyati to'g'risida	Yil davomida	S.Qilichev N.Xolmuminov H.Sanaqulov , tegishli tashkilotlar
15	Ichki bozorni yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish maqsadida: - qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yangi korxonalarini tashkil etish, ishlayotgan korxonalarini modernizatsiyalash va texnika bilan qayta jihozlashning hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalgaga oshirilshini ta'minlash	Yil davomida	S.Qilichev, N.Xolmuminov, H.Sanaqulov

16	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi “Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4464-sonli qarori ijrosi ta’minlash	Yil davomida	S.Qilichev N.Xolmuminov H.Sanaqulov
17	Tumanda ichimlik suvi ta’mnoti past aholi punktlarida mavjud suv inshootlarini joriy va kapital ta’mirlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash va bajarilishini tashkil etish	Yil davomida	S.Qilichev Sh.Ne’matov
Transport xizmat ko‘rsatish sohasidagi islohotlar bo‘yicha			
18	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi PQ-2724-sonli “Aholliga xizmat ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash	2025-yil 1-yarim yillik	S.Qilichev, N.Xolmuminov, tumandagi transport xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot rahbarlari
19	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-noyabrdagi 326-sonli “Siqilgan tabiiy suyultirilgan neftli gazlar yoki dizel va gaz aralashmali ko‘rinishdagi yoqilg‘i turlarida ishlovchi avtotransport vositalari xavfsizligi bo‘yicha umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash	Doimiy	S.Qilichev, E.Tuyunov, tegisli tashkilotlar
20	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir ko‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 22-dekabrdagi 1010-sonli qarori ijrosini ta’minlash	Doimiy	S.Qilichev, E.Tuyunov
Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilish			

21	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-oktyabrdagi “Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishslashga kompleks tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 612-sonli qarori ijrosini monitoring qilish, shuningdek tuman aholisiga ko‘mir va suyultirilgan gaz yetkazib berilishini monitoring qilib borish	Yanvar-iyun	S.Qilichev M.Ravshanov E.Ismoilov
22	Tumanda iste’molchilarga yetkazib berilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz hamda boshqa kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarini undirish ishlarining borishini topshiriqlar ijrosi mahallalar kesimida monitoring qilish	Yanvar-iyun	S.Qilichev S.Zubtiyev E.Ismoilov Sh.Ne’matov
23	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual kabulxonasi va xalq qabulxonasi hamda tuman hokimining qabulidan kelib tushgan fuqaro va yuridik shaxslarning murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va natijasi yuzasidan javob xati kiritilishini ta’minlash	Yil davomida	S.Qilichev M.Ravshanov N.Xolmuminov va tegishli tashkilot rahbarlari
24	Tuman hokimining o‘rinbosari tomonidan tumandagi mahallalar kesimida yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish va yoshlarda uchrayotgan muammolarni vakolat doirasida hal etish	Yil davomida (grafik asosida)	S.Qilichev, tegishli tashkilot rahbarlari
25	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish	Doimiy	S.Qilichev, E.Boboyev
26	Xalq deputatlari Paxtachi tuman kengashining sessiyalarida bajarilgan ishlar to‘g‘risida xisobotlar berib borish.	Har chorak yakunida	S.Qilichev
27	Yuqoridagi tadbirlarni bajarilishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish	Mavsum davomida	S.Qilichev, M.Ravshanov

Paxtachi tuman hokimining
2025-yil 4-martdagি
60-7-102-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Tuman hokimining o‘rnbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘ining 2025-yil I
yarim yillik
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar
2025-2030-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi hamda viloyat hokimligining qaror, yig‘ilish bayoni va farmoyishlaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1	Bo‘limning KPI ko‘rsatgichlarni har bir tarmog‘ini to‘liq bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ishslash	Doimiy ravishda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rnbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi

2	Tumanning 2025-yilda Investitsiya va tashqi savdo masalalari bo'yicha rivojlantirish strategiya rejasini ishlab chiqish.	2025-yil I chorakda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabihev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi
3	Tuman hokimligi veb-saytlarini investitsiya va tashqi savdo masalalariga taalluqli yangiliklar, tadbirlar, investitsiya loyiha takliflari, hududda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksportga chiqarish bo'yicha takliflar, yil va chorak yakunlari bo'yicha erishilgan ko'rsatgichlar, taqdimotlar, video va fotomateriallar bilan to'ldirib borish.	Doimiy ravishda (oyiga kamida 4 marotaba)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabihev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi
4	2025-yil Investitsiya dasturiga kiritilayotgan yangi investitsiya loyihalari hujjatlar jildini shakllantirish, shuningdek haftalarga bo'lingan detallashtirilgan "Gant jadvali"ni (hujjatlar to'plamini) to'liq shakllantirish.	2025-yil I chorakda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabihev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi
5	Paxtachi tumanida 2025-yilda amalga oshiriladigan Hududiy investitsiya dasturiga asosan shakillartirilgan, 1- va 2- choraklarda ishga tushadigan loyihalarning motoringini olib borish, yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda loyihalarni dasturda belgilangan muddatlarda ishga tushirilishini ta'minlash bo'yicha tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi hodimlari va tegishli tashkilotlardan iborat ishchi guruh tuzish va ishlarni o'z vaqtida tashkil etib borish.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabihev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi tegishli tuman tashkilotlari

6	<p>2024-yilda ishga tushirilgan investitsiya loyihalari hujjatlar jildini shakllantirish ishlarini yakunlash.</p>	2025-yil I chorakda	<p>Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi</p>
7	<p>Barcha (yangi va mavjud) investitsiya loyihalari monitoringini amalga oshirish. Bunda joyiga chiqqan holda loyihani tarmoq jadvali hamda biznes-reja bilan taqqoslab, o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni bajarish, tashrif yakuni bo'yicha bayonnomma rasmiylashtirib, fotosuratlarga olib, jildga tikib, doimiy ravishda yangilab borish.</p>	Har oy (kamida 2 marotaba)	<p>tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi</p>
8	<p>Hududiy va tarmoq loyihalari doirasida investitsiyalarning, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sifatli va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishi holatini, amalga oshirilishi yuzasidan vujudga keladigan muammo va kamchiliklar sabablarini tahlil qilib, qoloqliklarning yechimi bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash va amaliy yordam ko'rsatish.</p>	Doimiy ravishda	<p>Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rribbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu'basi mas'ul xodimi</p>

9	<p>O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi “Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish Markazi”ga tayyorlangan yangi investitsiya takliflarini taqdim qilish va xalqaro standartlar asosida tayyorlangan investitsiya loyihalariga Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi “Xorijiy investitsiyalarni jalb etish Agentligi”ga investorlarni topish uchun taqdim qilish, ularni borish jarayonini monitoring qilish. Shu bilan birgalikda, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan investitsiya loyihalarini hududiy va viloyat veb-saytlarida joylashtirish hamda viloyat hokimligi orqali O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalariga yuborish.</p>	Doimiy ravishda (har oy kamida 2 ta investitsiya taklifi/loyihasi)	<p>Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rnbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi</p>
10	<p>Doimiy ravishda hududda “Investitsiya kuni”ni o‘tkazish, unda yangi investitsiya loyihalari taqdimotlarini va o‘quv seminarlarini o‘tkazish, sohaga taalluqli yangiliklarni yoritib borish, investorlar va loyiha egalari/tashabbuskorlar bilan uchrashish, ularni muammolarini tezkor ravishda hal qilish bo‘yicha aniq choralar ko‘rish.</p>	Har xafta (Payshanba kuni)	<p>Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rnbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi</p>
11	<p>Ishga tushirilgan investitsiya loyihalarini doimiy monitoring tizimini joriy etish, bunda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish koeffitsientini aniqlash, to‘liq quvvatlarda ishlamayotgan korxonalarning sabablarini aniqlash va muammolarini yechishda ko‘maklashish, ishlab chiqarish samaradorligini, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha choralar</p>	Doimiy ravishda (har chorak yakuni bo‘yicha)	<p>Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rnbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi</p>

	ko‘rish.		
12	2025-yil va I choragida ishga tushiriladigan investitsiya loyihalari ro‘yxatini shakllantirish, ularning o‘z vaqtida ishga tushirilishi, shu jumladan qurilish- ta’mirlash, asbob-uskunalarini olib kelish va o‘rnatish, loyihalarni foydalanishga topshirish jarayonlarining o‘z vaqtida amalga oshirilishi bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish va monitoring tizimini joriy etish.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi
13	Doimiy ravishda mahsulot yetishtiruvchi, tayyorlovchi, eksportyor tashkilotlar bilan joyiga chiqqan holda muammolarini o‘rganib, ularni tezkor ravishda hal qilish yo‘llarini ko‘rish. Eksport prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minalash borasida amaliy yordam berish (qo‘srimcha aylanma mablag‘larga va bank kreditlari olishida ko‘maklashish, zarur xom- ashyo, tabiiy gaz, elektr energiyasi ta’minti, transport va logistika masalalarini hal etilishida amaliy yordam ko‘rsatish), eksport shartnomalarini shakllantiri sh, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi “Eksportni qo‘llab- quvvatlash Agentligi” hamda O‘zbekiston Respublikasining xorijiy vakolatxonalari	Har xafta (kamida 1 marotaba)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi

	yordamida hamkor topish, mahsulotlarni eksportga tayyorlash, bojxona orqali rasmiylashtirilishida va sertifikatlashtirilishida ko‘maklashish, eksport tushumlarini qonunchilik va shartnomada ko‘rsatilgan muddatlardan kechiktirmay tushishini ta’minlash va doimiy ravishda debitorlik-kreditorlik qarzdorlikni monitoringini olib borish.		
14	Hududning tashqi savdo aylanmasini tizimli ravishda chuqur tahlil qilib borish, bunda hududga import shaklida kiritilayotgan xom-ashyo, butlovchi buyumlar va tayyor mahsulotlar tarkibini o‘rganish asosida mahalliylashtirish bo‘yicha manzilli loyihalarni shakllantirish va amalga oshirilishida ko‘maklashish, importni optimizatsiyalash, tuman va viloyat miqyosida sanoat kooperatsiyasiga urg‘u berish.	Doimiy ravishda (har oyning natijasiga ko‘ra)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi mas’ul xodimi
15	O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalari va vakolatxonalari bilan tuman drayveridan kelib chiqib ishlab chiqilgan investitsion loyiha takliflarini xorijiy investorlarga etkazish hamda tumanga jalb etish bo‘yicha hamkorlikda ishlash.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi mas’ul xodimi
16	Yuqoridaqgi tadbirlarni bajarilishini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.	Har xafta (kamida 1 marotaba)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu‘basi mas’ul xodimi

17	“Edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish tizimi orqali kelgan topshiriqlar hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash.	Doimiy ravishda	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rribosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi
18	Davlat rahbari, hukumat delegatsiyasi, viloyat hokimi hamda tuman hokimligi delegatsiya azolarining xorijiy mamlakatlarga qilgan tashriflari hamda Davlat rahbarining hududlarga tashriflari davomida (bayonlarda aks ettirilgan) taqdimot qilingan investitsiya loyihalari, viloyatda o‘tkazilgan biznes va investitsiya forumlari natijalariga ko‘ra imzolangan anglashuv memorandumlariga (MOU) asosan shakllantirilgan “Yo‘l xaritalari” va “Tarmoq jadvali” bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish va doimiy ravishda monitoring o‘tkazib, viloyat ITS boshqarmasiga hisobot berish.	Har xafta (Dushanba kuni)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rribosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi
19	Tuman hududida yashab bugungi kunda Xitoy va boshqa davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlarda faoliyat ko‘rsatayotganlar bilan doimiy aloqalarni tiklash orqali tumanga yangi investorlarni jalb etish	Har xafta (kamida 1 marotaba)	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rribosari M.Abdinabiyev, tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo shu’basi mas’ul xodimi

Paxtachi tuman hokimining
2025-yil 4-martdagি
60-7-102-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi
bo‘limi boshlig‘ining 2025-yil I yarim yillik**

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar
2025-2030-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi hamda viloyat hokimligining qaror, yig‘ilish bayoni va farmoyishlaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sun Farmoni ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda

2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoni belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Fevral	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-sentyabrdagi “Issiqxonalar xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-339-sonli qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Fevral	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
4.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi tizimini yanada takomillashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 622-sonli qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Fevral-Mart	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-273-son qarori ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda

6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-sonli qarori ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Fevral-Mart	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (D.Rahimov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
7.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori ijrosini tashkil etish.	Mart	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
8.	Aholi tomorqalarida ertaki, takroriy va to‘qsonbosti ekinlarini ektirishni tashkil etish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni maqsadli o‘rganish.	Mart	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (B.Urinov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda
9.	Navro‘z bayrami arafasida ichki iste’mol bozorlarini asosiy turdagи oziq-ovqatlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan kafolatli to‘ldirish va narx-navolarni barqaror saqlanishini ta’minlashga qaratilgan Toshkent shahrida arzonlashtirilgan savdo yarmarkalarini tashkil qilish.	2025-yil mart	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov), “O‘zagroinspeksiya”ning tuman bo‘limi (O‘.Eshpo‘latov)

10.	<p>2025-yil I yarim yillikda qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va yuqori o‘sish sur’atini ta’minlash.</p> <p>Jumladan: 2025-yil yanvar-mart 342,2 mlrd so‘m, o‘sish - 106,4%;</p> <p>2025-yil yanvar-iyun 1 trl 186 mlrd 6 mln so‘m, o‘sish – 106,5%.</p>	2025-yil har chorakda	<p>Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov),</p> <p>“O‘zagroinspeksiya”ning tuman bo‘limi (O‘.Eshpo‘latov), tuman Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (D.Raximov)</p>
11.	<p>Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida doimiy hamda mavsumiy yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda 4 495 nafar aholi bandligini ta’minlash.</p> <p>Jumladan:</p> <p>Yanvar – 30 nafar;</p> <p>Yanvar-fevral - 94 nafar; Yanvar- mart - 185 nafar; Yanvar-aprel - 343 nafar;</p> <p>Yanvar- may - 940 nafar; Yanvar- iyun - 395 nafar.</p> <p>Doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo‘lganlarni O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining yangiish.mehnat.uz elektron platformasiga to‘liq va o‘z vaqtida kiritilishini nazorat qilib borish.</p>	Har oyning 15-sanasigacha	<p>Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov), Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (D.Raximov), tuman “Ziyyovuddin Silk” MChJ va tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi</p>

12.	<p>Maxsulot yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar uchun qilingan xarajatlarini bir qismini qoplashga "Agrosubsidiya" axborot tizimi orqali kelib tushgan arizalar tuman ishchi guruhi tomonidan xulosalarni belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta'minlash.</p>	2025-yil fevral- iyun	<p>Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinnbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i (G'.Absanov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (N.Sadinov), tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi, tuman Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (B.Urinov), tuman elektr tarmoqlar korxonasi va tijorat banklari</p>
13.	<p>Yerlarni o'zlashtirish va foydalanishga kiritish bo'yicha:</p> <p>Foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarini konturlar kesimida aniqlash.</p> <p>Aniqlangan yer maydonlarni tuman suv xo'jaligi bo'limi bilan kelishgan xolda amalga oshiriladigan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari hamda talab etiladigan mablag'larini hisob-kitob qilgan holda manzilli ro'yxat (bunda, yer maydon kontur raqami, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlar, talab etiladigan mablag', elektron xaritalar bo'lishi shart) shakllantirish, tasdiqlab viloyat boshqarmasiga taqdim etish.</p> <p>Tasdiqlangan grafik asosida yer maydonlarini foydalanishga kiritish tadbirlarini amalga oshirish.</p> <p>Yer maydonlarini foydalanishga kiritishda yuzaga keladigan muammolarni joyiga chiqqan holda bartaraf etish.</p> <p>5. Foydalanishga kiritilgan yer maydonlari to'g'risida dalolatnomalarni rasmiylashtirish, yangi o'zlashtirilgan yer maydonlarining yer toifasiga o'zgartirish kiritish uchun, viloyat</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yil mart</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p>	<p>Tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinnbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i (G'.Absanov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (N.Sadinov), Kadastr agentligi tumani bo'limi (A.Qoxorov) va Davlat Kadastrlari palatasining tuman filiali (A.Bayitov)</p>

	boshqarmasiga dalolatnomma va murojaatnomalar taqdim etish.		
14.	. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi geoportalidan tumanda foydalanishni tashkil etish. . Barcha turdagи ekinlarni, shuningdek dala chetlari, bog‘, issiqxona va uzumzorlardan samarali foydalanish holatini monitoring qilish.	fevral-iyun doimiy	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov)
15.	. Aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish maqsadida yer maydonlarini ro‘yxatini shakllantirish, zaxiradagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish, jumladan loyihalarni “E-IJARA” axborot tizimida belgilangan muddatlarda tasdiqlanishni tashkil etish. . Ajratilgan yer uchastkalarini g‘oliblarga ajratish va yerlardan samarali foydalanishni tashkil etish.	fevral-iyun	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov)
16.	“Agrosubsidiya” axborot tizimidan foydalanishni kengaytirish, ishchi komissiyalarning ishini tashkil etish: Foydalanuvchilar, jumladan davlat idoralari va mahsulot yetishtiruvchilarga amaliy yordam ko‘rsatish.	Doimiy	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov)

17.	<p>Tumanda mavjud yaylovlarni xatlovdan o‘tkazish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> tayyorgarlik ishlari; tuman hokimliklarining tegishli famoyishlarini qabul qilish; dala ishlari, joyiga chiqqan holda o‘lchov ishlarini amalga oshirish. <p>2. Yangi tutzorlar barpo qilish ijaraga berish uchun “E-auksion” elektron savdo platformasiga joylashtirish.</p> <p>3. Intensiv bog‘lar tashkil etish maqsadida zahiradagi yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdoga chiqarish.</p>	2025-yil fevral-iyun	<p>Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov), Kadastr agentligi tumani bo‘limi (A.Qoxorov)</p>
-----	--	-------------------------	--

18.	<p>Tumanda 2025-yil hosili uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish ko‘rsatkichlari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarda hududlar bo‘yicha joriy va tezkor (kunlik) monitoring ishlarini amalga oshirish.</p> <p>Monitoring bo‘yicha aniqlangan maydonlarni vazirlikning “Geoaxborot” tizimiga kiritish.</p> <p>Rejadagi ekinlarni kam ekish, umuman ekmaslik, rejadan ortiqcha va rejasiz ravishda ekish holatlarini tahlil qilish.</p> <p>Joylarda monitoring ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilgan holda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga oid qonun buzilish holatlari, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli davlat organlariga axborot kiritib borish.</p> <p>Ertaki ekin va g‘alladan bo‘shaydigan maydonlarga ekiladigan takroriy ekin maydonlarini monitoringdan o‘tkazib, vazirlikning “Geoaxborot” tizimiga kiritish.</p>	I yarim yillikda	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘ribbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Sadinov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (B.Urinov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Qohorov)
19.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-sentyabrdagi “O‘simliklarni himoya qilishda biologik kurash tadbirlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-sonli qarori ijrosini maqsadli o‘rganish.	Aprel	Tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘ribbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (G‘.Absanov), tuman O‘simliklar karantini va himoya qilish bo‘limi (S.Daminov) va tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda

